

## “QISASI RABG‘UZIY” ASARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI

*Anorqulova Dilobar*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi*

РУКОПИСНЫЕ КОПИИ С

ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КИСАСИ РАБГУЗИ»

*Anorkulova Dilobar*

*аспирант 2 курса Международной исламской  
академии Узбекистана Область текстологии и  
литературного источниковедения*

MANUSCRIPT COPIES OF THE WORK

"QISASI RABGUZI"

*Anorkulova Dilobar*

*2nd year graduate student of the International Islamic  
Academy of Uzbekistan*

*Field of textual studies and literary source studies*



<https://orcid.org/0000-0001-5942-2230>

[dilobarmirzarahimova999@gmail.com](mailto:dilobarmirzarahimova999@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” asarining dunyo bo‘ylab saqlanib kelinayotgan qo‘lyozma nusxalari va O‘zFA Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti fondida mavjud bo‘lgan qo‘lyozma nusxalari haqida ma‘lumotlar berilib, ularning ba‘zilari tasniflab berildi.

**Kalit so‘zlar:** manbashunoslik, qo‘lyozma nusxa, invertar, faksimele.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о сохранившихся по всему миру рукописных экземплярах произведения «Кисаси Рабгузи» и рукописных экземплярах, имеющих в фонде Института востоковедения УзФА, причем некоторые из них засекречены с учетом

**Ключевые слова:** источниковедение, рукописный экземпляр, инвертор, факсимиле.

**Abstract:** This article provides information about manuscript copies of the work "Qisasi Rabguzi" preserved around the world and manuscript copies available in the fund of the Institute of Oriental Studies of the UzFA, and some of them are classified given

**Key words:** source science, manuscript copy, inverter, facsimile, calligrapher.

**KIRISH.** Payg‘ambarlar qissalari Qisas al-Anbiya so‘nggi ming yil ichida musulmonlarning ko‘p e‘tiborini o‘ziga tortgan kitoblardan biridir. Ushbu kitob turli mintaqalarda yozilgan bo‘lib, asrlar davomida va hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

Nosiruddin Rabg‘uziying “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham qimmatli tarixiy manbalar qatoridan o‘rin olgan bo‘lib, bu asar payg‘ambarlar hayoti haqidagi ibratli qissalardan tashkil topganligi uchun “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Shuning uchun uning ko‘plab nusxalari dunyoning turli hududlariga olib ketilgan va har xil

tillarga tarjima qilingan. Bu esa asarni manbashunoslik jihatidan tadqiq qilish orqali asarning asl nusxasiga yaqin nusxasini aniqlash zaruratini tug‘diradi.

**ASOSIY QISM.** “Qisasi Rabg‘uziy” asari yozilgandan buyon uning nusxalari butun dunyo bo‘ylab tarqaldi. Asar tilining sodda va ravonligi uning keng tarqalishini ta‘minlab berdi. A.Xaliullina asarning grafo-fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, uning dunyo fondlarida 35 ta qo‘lyozma nusxasi borligi hamda A.Sherbak, E.Tenishev, A.Baskakov, N.Nasilov kabi

turkiyshunos olimlar asarning til xususiyatlariga doir turli mulohazalar bildirishgani haqida ham ma'lumot berib o'tganlar. Rabg'uziy tomonidan yozilgan Qisasul-Anbiyoning turli kutubxonalarda ko'plab nusxalari mavjud. Uning lingvistik jihatlarini aks ettirish bo'yicha ishning eng qadimiy va eng yaxshi nusxasi Londondagi kutubxonada saqlanayotgan nusxasidir. Shu bilan birga, dunyoning turli burchaklarida ham uning nusxalari mavjud.

1991-yilda e'lon qilingan maqolada Xendrik Boesshoten "Qisasul anbiyo"ning Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)da ushbu nusxalarning olti nusxasini tilga oladi. Shuningdek, Shvetsiyada ikkita, Parij va Bokuda har biridan bittadan nusxa. Uning nusxalari faqat yuqoridagilar bilan cheklanmagan. So'nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan ayrim nusxalar chop etilganligi bo'yicha maqolalar shaklida kiritilgan. Ular orasida Ali Jinn tomonidan taqdim etilgan Tehron nusxasi ham bor. Bu til xususiyatlari jihatidan muhimdir.

"Qisasi Rabg'uziy" 7397

Asarning ushbu qo'lyozma nusxasi 1291 h/1874-1875 m yilda xattot Mulla Eshonquli tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozmaning o'lchami 17x31. Varoqlar soni 553 ta. Matn qatorlari soni 17 ta. Nasta'liq (lavhali) xatida, o'zbek tilida yozilgan. qo'lyozmada poygir mavjud, qo'lyozmaning 3 a - sahifasida katta muhr qo'yilgan, asosiy matn jadvalga olingan, jadval chizig'i ko'k, qizil siyoh bilan, matn esa qora rangli siyoh bilan, matn ichidagi ba'zi so'zlar, jumlar va sarlavhalar och qizil rangli siyoh bilan berilgan. Jadvallar 3 qatordan, siyohrangda berilgan. Varoqlari deyarli holatda saqlangan, lekin ba'zi sahifalar kuygan va suvdan zararlangan. Qo'lyozmada kolofon bo'lib, kolofonda kotib ismi, ko'chirilgan yili keltirilgan. Muqovasi qattiq. Asar basmala bilan boshlangan. Qog'oz sharq qog'oz. 1 a sahifasida 2 ta katta naqsh berilgan. Yozuvi chiroyli, mayda yozilgan. Qo'lyozmaning 141 b, 142 a va b sahifalarida miniaturalar berilgan. Bu miniaturalarda Makkayi mukarramadagi Ka'ba va Masjidul Aqso tasvirlangan bo'lib, bu binolarning qurilishi bilan bog'liq qissalar keltirilgan. Hoshiyalari mavjud. 162 a sahifada hoshiya jadvalga olinib berilgan. 162 b sahifadan Yusuf a.s. ning qissalari boshlanib, boshqa ko'pgina qissalardan farqli ravishda qissa berilgan sahifaning yarmida gullar bilan bezatilgan miniaturadan foydalanilgan. Islom tarixida eng

go'zal qissa hisoblangan Yusuf a.s. qissasini berishda, xattot uni boshqa qissalardan farqli ravishda mana shunday chiroyli tarzda beradi. Basmala bilan Qur'onning Yusuf surasidan oyat keltirish boshlangan. 168 b sahifasidagi jadval ichiga va tashqarisiga uch dona kichik muhr qo'yilgan. 184-varoq zararlangan. Qo'lyozmaning 510 a sahifasida ham miniatura berilgan. Qo'lyozmadagi barcha hoshiyalar alohida kichik jadvalga olingan bo'lib, poygir mavjudligiga qaramasdan arab raqamlari bilan ham raqamlangan.

"Qisasi Rabg'uziy" 6227

Qo'lyozmaning bu nusxasi hijriy 1300/ milodiy yilda ko'chirilgan. O'lchami 25.5x29.5 ni tashkil etadi. Varoqlari soni 358 ta, matn qatorlari soni 17 ta. Turkiy tilda, nasta'liq xatida yozilgan.

Ushbu qo'lyozmaning muqovasi qattiq, varoqlari zararlangan, varoqlari sahifalangan. Qog'oz sharq qog'oz. Kolofon mavjud, poygiri bor. Qo'lyozmada matn jadvalga olinmagan. Yozuvlari katta va qalin yozuvda yozilgan. Arabiy so'z va jumlar ustiga qizil siyoh bilan chiziq chizilgan. Qora va qizil siyoh bilan yozilgan. Asar mumtoz adabiyotimizdagi an'anaga ko'ra basmala, hamd va na't bilan boshlangan. *قول تعالى* jumlasini qizil siyohda yozilgan. Qatorlar orasi qizil siyoh bilan ajratilgan. Bundan tashqari yangi qissalar boshlanishidan oldin ham qissaning nomi qizil siyoh bilan berilgan. 1 a sahifasida qo'lyozma mundariyasi berilgan. Unga ko'ra bu qo'lyozmada 20 ta qissa keltirilgan, basmaladan so'ng hamd keltirilib, unda odamning yaratilishi haqida so'z borgan va muallif har bir fikriga isbot sifatida Qur'on Karim oyatlarini keltirgan. Arabiy jumlar ham qo'llangan. Asar arabiy jumla bilan boshlangan, hamddan so'ng, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ga na't keltirilgan. Na'tda u zotning sifatleri, vazifalari ketma-ket sanalgan bo'lib, ularning har biriga Qur'on oyatlaridan dalillar keltirilgan. Sanalgan sifatlar qizil siyoh bilan ajratilgan. Muallif sifatleri sanab bo'lgach, Muhammad s.a.v.ga atalgan she'r keltiradi. Qo'lyozmadagi yozuvlar zararlangan bo'lib, ba'zi so'zlar bo'yalib ketgan. Ba'zi so'zlar esa xattot tomonidan o'chirilib, ustidan chiziq tortilgan. Ba'zi sahifalarda hoshiya berilgan. Sahifalar arabiy raqamlar bilan sahifalangan.

"Qisasi Rabg'uziy" 6685

Ushbu qo'lyozmaning qachon va kim tomonidan ko'chirilganligi noma'lum. Qo'lyozma o'lchami 19.5x26. varoqlari soni 341 ta. Matn

berilgan qatorlar soni 19 ta. O‘zbek tilida, nasta’liq xatida yozilgan.

Bu qo‘lyozmaning muqovasi qattiq, qora rangda, naqshlar bilan bezatilgan. Qog‘ozi sharq qog‘ozi, poygiri mavjud, matn jadvalga olinmagan. Qora va qizil siyohlardan foydalanilgan. Qizil siyohdan, asosan, ba’zi so‘zlarni ajratib yozishda, sarlavhalarni va odamlarning ismlarini yozishda foydalanilgan. Yozuvi chiroyli va mayda yozilgan. Yozuvlari va varoqlari zararlangan, ba’zi sahifalarga dog‘ tushgan. Qo‘lyozmada unvon, muhrlar yo‘q. Lekin hoshiyalar va poygir mavjud. Matn jadvalga olinmagan. Matn basmala bilan boshlanib, undan keyin hamd keltirilgan. Kitobning birinchi sahifasida qo‘lyozma haqoda qisqacha ma’lumotlar berilgan. Qo‘lyozma “Bismillahir rohmanir rohim” jumlasini bilan ham qora ham qizil siyohda yozilgan. Qo‘lyozma matni asosan qora siyohda yozilgan bo‘lib, ba’zi jumlar va she’rlarning jumlarini ajratish uchungina qizil siyohdan foydalanilgan. Matn turkiy tildagi Allohga hamd bilan boshlangan. *قول تعالی* jumlasini qizil siyoh bilan yozilgan. Va har bir fikrdan so‘ng uni tasdig‘i sifatida Qur‘on oyatlari keltirilgan. Sahifalari arab raqamlari bilan raqamlangan. Qo‘lyozma so‘ngida kolofon sifatida turkiy tilde she’r berilgan.

Qo‘lyozmada rivoyatlarning faqat bir qismi berilgan. Qissalar matni boshqa asarning hoshiyasida joylashgan. Muallif Nasiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy, 13-asr oxiri — 14-asr boshlarida yashagan o‘zbek shoiri. Matn oddiy Qo‘qon qog‘oziga nastaliq xatida yozilgan. Siyohi qora. Bog‘lovchi karton kulrang, asosiy. Alohida varaqlarning burchaklari yirtilgan (varaq 94). Nusxa taxminan 19-asrga to‘g‘ri keladi. 80 ll. (15a-94b); 14x25

V. Yevropa qog‘ozi. Nastaliq. Matn qora rangda, sarlavhalar qizil siyohda yozilgan. Juda nuqsonli, boshlanishi va oxiri yo‘q, o‘rtadagi bo‘shliqlar bilan, ko‘plab varaqlar namlikdan shikastlangan. Nusxa XVIII asrga tegishli. 200 bet; 18x24,5

“Qisasi Rabg‘uziy” 1834

Ushbu qo‘lyozmaning ham qachon kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Qo‘lyozma o‘lchami 20x27. Varoqlari soni 448 ta, matn berilgan qatorlar soni 17 ta. Chig‘atoy tilida, nasta’liq xatida yozilgan.

Asarning bu nusxasi juda noyob bo‘lib, deyarli foydalanish uchun berilmaydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” 6346

Qo‘lyozmaning bu nusxasi qachon, kim tomonidan ko‘chirilgani ma’lum emas. Uning o‘lchami 27x31. Varoqlari soni 553 taga yetadi. Matn qatorlari soni 21 ta. Chig‘atoy tilida, nasta’liq xatida yozilgan. Matn jadvalga olinmagan. Varoqlar zararlangan, chetlari yemirilgan. Yozuvi mayda, lekin qalin. Asosan qora siyoh bilan yozilgan. *قول تعالی* jumlasini, nazm kabi so‘zlar qizil siyoh bilan berilgan. Hoshiyasi va poygiri mavjud. Keyinchalik qalam bilan raqamlab chiqilgan. Qo‘lyozmaning 1 a sahifasida asar mundarijasi berilgan. Bu qo‘lyozma to‘liq emas.

**Xulosa.** “Qisasi Rabg‘uziy” asarining qo‘lyozmalari dunyo bo‘ylab keng tarqalib, ularning ko‘plab nusxalari saqlanib qolgan. Maqolada ushbu nusxalarning saqlanish joylari, tasnifi va asosiy xususiyatlari yoritilgan. Har bir nusxa o‘ziga xos bo‘lib, ularning til, grafika va yozuv usullari tafsilotlari asarning tarqalishi va turli davrlardagi xattotlik an‘analarini aks ettiradi. Sharqshunoslik tadqiqotlarida bu qo‘lyozmalarning ilmiy o‘rganilishi muhimdir, chunki ular “Qisasi Rabg‘uziy” asarining matnini tiklashda, adabiy va tarixiy qadriyatini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlanayotgan nusxalar qatoriga kiruvchi nusxalar xattotlik san‘atining noyob namunalari hisoblanadi. Kelgusida ushbu qo‘lyozmalarni chuqur o‘rganish, ilmiy jamiyat uchun yanada boy bilim va tasavvurlarni ochib berishi kutilmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madraimov A, Fuzailova. G. Manbashunoslik. –Toshkent: Fan, 2007. -294 b.
2. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1 tom: Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. - Toshkent: Fan, 1978.
3. Raxmonov, E. K. o‘g‘li, Qobilov, F. S. o‘g‘li, & Berdimuradov, X. T. o‘g‘li. (2023). Retrieved from
4. Xamidova M. Nodir manbalar // Sharq mash’ali, 1999.№ 1-2. – B. 35..
5. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2010 yil, 27-soni – B. 5.
6. <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>.